MIGRATSIYA JARAYONLARINING MILLATLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI

X.R.Nafiddinova,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19814275

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv davrida migratsiya jarayonlarining millatlararo munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni va ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada migratsiya nafaqat iqtisodiy hodisa, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy almashinuv va bag'rikenglikni (tolerantlikni) mustahkamlovchi omil ekanligi tadqiq etilgan. Maqolada migratsiyaning ijobiy xususiyatlari – madaniy xilma-xillikning boyishi, ijtimoiy integratsiya va davlatlararo gumanitar hamkorlikning rivojlanishi kabi jihatlar yoritib berilgan. Shuningdek, xilma-xil millat vakillarining hamjihatlikda yashashi jamiyat barqarorligiga qo'shadigan hissasi ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *migratsiya, millatlararo munosabatlar, birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti, moslashuv, emigrant, demografik va ijtimoiy tuzilishiga, etnografik tarkib, madaniy integratsiya, ichki va tashqi migratsiya, qaytarilmaydigan migratsiya, vaqtinchalik migratsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль миграционных процессов в формировании межнациональных отношений и их социально-культурная значимость в эпоху глобализации. Автор исследует миграцию не только как экономическое явление, но и как фактор, укрепляющий культурный обмен и толерантность между народами. В работе освещены такие положительные аспекты миграции, как обогащение культурного разнообразия, социальная интеграция и развитие межгосударственного гуманитарного сотрудничества. Также научно обоснован вклад гармоничного сосуществования представителей различных национальностей в обеспечение стабильности общества.*

Ключевые слова: *миграция, межнациональные отношения, первое общественное разделение труда, адаптация, эмигрант, демографическая и социальная структура, этнографический состав, культурная интеграция, внутренняя и внешняя миграция, безвозвратная миграция, временная миграция.*

Abstract. *This article analyzes the role of migration processes in shaping interethnic relations and their socio-cultural significance in the era of globalization. The study examines migration not only as an economic phenomenon but also as a factor that strengthens cultural exchange and tolerance between nations. The article highlights positive aspects of migration, such as the enrichment of cultural diversity, social integration, and the development of international humanitarian cooperation. Furthermore, it provides a scientific basis for how the harmonious coexistence of diverse ethnic groups contributes to social stability.*

Keywords: *migration, interethnic relations, first social division of labor, adaptation, emigrant, demographic and social structure, ethnographic composition, cultural integration, internal and external migration, permanent migration, temporary migration.*

Kirish. Bir hududda turli millat va elat vakillari to'planishi va o'troq hayot kechirishiga ko'plab sabalar bor. Shulardan biri bu migratsiya jarayonlaridir. O'rta Osiyo qadimgi tarixida ham migratsiyalar natijasida madaniyat, til, e'tiqodlar va

diniy qarashlarning tubdan o‘zgarishi, siyosiy jihatdan yangi davlatlarga asos solinganligini qayd etish mumkin [1.487].

Migratsiya – bu shaxs yoki aholi guruhlarining turli omillar ta’sirida o‘z yashash joyini o‘zgartirish jarayonidir. Ushbu hodisa ma’lum bir hudud sarhadlaridan chiqib, boshqa yerda doimiy yoki vaqtinchalik qo‘nim topish shaklida namoyon bo‘ladi.

Migratsiya jarayonlari ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy, diniy va harbiy sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Amalga oshirilish shakliga ko‘ra u ikki turga bo‘linadi:

Tashkiliy migratsiya – davlat organlari va ijtimoiy tashkilotlar ko‘magida amalga oshiriladi.

Stixiyali (uyushmagan) migratsiya – shaxsning mustaqil qarori va sa’y-harakati bilan sodir bo‘ladi.

Zamonaviy dunyoda migratsion oqimlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida iqtisodiy omil (daromadlarni oshirish va yaxshi yashash sharoitlarini izlash) yetakchilik qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan anglashga bo‘lgan intilishlar XIX asrning oxirlariga borib taqaladi. Xususan, migratsiya nazariyasining asoschisi hisoblangan ingliz geografi va kartografi E.G.Ravenshteyn o‘zining fundamental tadqiqotlarida bu hodisani tizimli tahlil qilishga uringan ilk olimlardan biridir. Ravenshteyn tomonidan shakllantirilgan "Migratsiya qonuniyatlari" (Laws of Migration) bugungi kunga qadar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, u migratsiyaning masofaga bog‘liqligi, bosqichma-bosqich rivojlanishi va asosiysi - ayollar migratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib ilmiy asoslab bergan. Uning tahlillariga ko‘ra, ayollar ko‘proq qisqa masofali (lokal) migratsiyaga moyil bo‘lsa-da, ularning umumiy oqimdagi ulushi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi indikator bo‘lib xizmat qiladi. Ravenshteynning nazariy merosi zamonaviy migratsion siyosatni shakllantirishda hamda migrantlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta’minlashda fundamental baza bo‘lib xizmat qilmoqda [4.219]. Aholi migratsiyasi hayotning barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalariga istisnosiz ta'sir ko'rsatadigan global hodisadir. Bu hududlarning iqtisodiy salohiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga yordam beradi yoki aksincha, turg'unlik va tengsizlikni kuchaytiradi, kamsitish va iqtisodiy ekspluatatsiyaga yordam beradi. O‘zbekistonda bu mavzuning ijtimoiy-sotsiologik, falsafiy, tarixiy va iqtisodiy jihatlarini yoritishda Q.X.Abduraxmonov, B.Umrzoqov, M. Rahimov, F.Ya.Parmanov, K.Kalanov, Z.A. To’lametovalar ilmiy tadqiqot olib borganlar [5.491]. Biroq bu tadqiqotlarda O‘zbekistonda ayollar migratsiyasi demografik

jarayonlarga ta’siri, ayniqsa uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolari bilan qiyosiy tahlil qilishga e’tibor qaratilmagan.

Tadqiqot metodologiyası. Mazkur maqolada tizimli yondashuv, tarixiy-qiyosiy hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi. Migratsiya jarayonlarining millatlararo munosabatlarga ta’siri ilmiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida kompleks ravishda o‘rganildi. Shuningdek, globallashuv sharoitida migratsiyaning ijtimoiy-madaniy oqibatlari analitik va konseptual yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Qadimgi davrlardagi migratsion jarayonlar asosan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar majmuasi ta’sirida yuzaga kelgan. Xususan:

Tabiiy-ekologik omillar: Kuchli qurg‘oqchilik, tuproqning sho‘rlanishi va cho‘llanish jarayonlari aholini hayot uchun qulayroq hududlarni izlashga majbur qilgan.

Demografik va iqtisodiy ziddiyatlar: Aholi sonining keskin ortishi va zichligining yuqoriligi natijasida unumdor yerlar, suv manbalari hamda yaylovlarning yetishmasligi asosiy sabablardan biri bo‘lgan. Shuningdek, metallurgiya rivoji uchun zarur bo‘lgan xomashyo resurslarining tanqisligi ham ko‘chishlarga turtki bergan.

Ijtimoiy-siyosiy raqobat: Mesopotamiya sivilizatsiyasi misolida ko‘rinadiki, shahar-davlatlar o‘rtasidagi yangi yerlarni egallash, strategik savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish borasidagi tinmsiz raqobat va o‘zaro urushlar aholi migratsiyasini jadallashtirgan [2,120]. Tarixiy taraqqiyot prizmasidan qaraganda, migratsiya jarayonlari insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishi va ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvida fundamental omil bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu jarayonning ilk bosqichlari birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti, ya’ni chorvador qabilalarning umumiy massadan ajralib chiqishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu chorvachilik va dehqonchilikning jadal rivojlanishiga, pirovardida esa hunarmandchilikning dehqonchilikdan mustaqil soha sifatida ajralishiga olib keldi. O‘rta asrlar va undan keyingi davrlarda xalqlarning buyuk ko‘chishi (IV–VII asrlar), buyuk geografik kashfiyotlar (XV–XVII asrlar) hamda sanoat inqilobi natijasida yuzaga kelgan massiv urbanizatsiya jarayonlari migratsiyani global xarakterga ega bo‘lgan fenomenga aylantirdi. Masalan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropadan Amerikaga yo‘nalgan 50 milliondan ortiq migrantlar oqimi jahon iqtisodiy xaritasini tubdan o‘zgartirib yubordi. XX asrda sodir bo‘lgan ikki jahon urushi va undan keyingi geosiyosiy to‘qnashuvlar migratsiya dinamikasiga keskin ta’sir ko‘rsatib, millionlab insonlarning majburiy ko‘chishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda, Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab

xalqaro migrantlar soni 281 milliondan oshgan bo'lib, bu global aholining qariyb 3,6 foizini tashkil etadi. Migratsiya nafaqat xalqlar o‘rtasida hududlarni qayta taqsimlashda, balki xalqaro mehnat bozorini shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Bu jarayon emigrantlarning ham, qabul qiluvchi mamlakat doimiy aholisining ham turmush darajasiga bevosita ta’sir o‘tkazib, jamiyatning demografik strukturasi, ijtimoiy qatlamlanishi va hududiy joylashuv tartibini tubdan o‘zgartiradi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda migrantlar ishchi kuchining 15-20 foizini tashkil etishi iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlovchi asosiy drayverlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, migratsion oqimlar turli madaniyatlarning sintezi natijasida hududlarning etnografik tarkibini boyitib, global integratsiyalashuv va ijtimoiy taraqqiyotning muhim mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi[3]. Doimiy yashash joyining oxirgi o'zgarishi munosabati bilan:

- qaytarilmaydigan migratsiya;
- juda uzoq vaqt davomida migratsiya bilan bog'liq vaqtinchalik migratsiya;
- yilning ma'lum bir davrida ko'chirish bilan bog'liq mavsumiy migratsiya;
- doimiy ish va boshqa joylardagi ta'lim muassasalariga borishni o'z ichiga olgan ko'chma migratsiya;
- mamlakatdan boshqa joyga ko'chish, mamlakatga ko'chib o'tish shaklidagi tashqi migratsiya;
- Mamlakat ichidagi migratsiya bilan bog'liq ichki migratsiya turlariga bo'linadi.

Ichki migratsiya o‘z navbatida qishloq aholisining migratsiyasi va shahar aholisining migratsiyasiga bo'linadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari kontekstida aholi migratsiyasi xalqaro munosabatlar va milliy taraqqiyotning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ushbu transformatsion jarayonlar nafaqat ko‘lam jihatidan kengayib bormoqda, balki sifat jihatidan ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Xususan, migratsion oqimlar jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlarini, turli yosh guruhlarini va kasb egalarini o‘z ichiga olgan holda, universal xarakter kasb etmoqda. Bu borada migratsiyaning feminizatsiyalashuvi, ya’ni ayollar ishtirokining global miqyosda keskin ortishi zamonaviy demografik tendensiyalarning o‘ziga xos xususiyatiga aylandi. Agar ilgari ayollar asosan oila a’zolari ortidan ergashuvchi “paktiv migrantlar” sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, hozirda ular mustaqil qaror qabul qiluvchi va iqtisodiy faol subyektlar sifatida maydonga chiqmoqda.

Xalqaro migrantlar sonining jadal sur’atlar bilan o‘sishi yer yuzidagi deyarli barcha davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy arxitekturasiga, mehnat bozori barqarorligiga va madaniy landshaftiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bashorat qilinayotgan

demografik va iqtisodiy siljishlar yaqin kelajakda bu dinamikaning yanada kuchayishidan dalolat beradi. Eng muhimi, migratsiya hodisasi barqaror rivojlanish, kambag‘allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi va inson huquqlari kabi global kun tartibidagi fundamental muammolar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida eng yirik demografik salohiyatga ega davlat sifatida xalqaro migratsiya oqimlarining asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi migratsiya jarayonlari mustaqillikning dastlabki yillarida asosan etnik xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrning birinchi o‘n yilligidan boshlab sof iqtisodiy (mehnat) migratsiyasi ustuvorlik kasb eta boshladi. Bugungi kunda O‘zbekiston tashqi migratsiyasi nafaqat Rossiya va Qozog‘iston kabi an’anaviy yo‘nalishlar, balki Janubiy Koreya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi va Fors ko‘rfazi mamlakatlari hisobiga sezilarli darajada diversifikatsiyalashmoqda.

So‘nggi yillarda davlat siyosatida migratsiyaga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib, u “tashkiliy va xavfsiz mehnat migratsiyasi” tamoyili asosida tartibga solinmoqda. Bu borada ayollar migratsiyasining o‘sish sur’atlari alohida e’tiborga molikdir. O‘zbekistonlik xotin-qizlarning xalqaro mehnat bozoriga chiqishi nafaqat oilalar daromadining oshishiga, balki xizmat ko‘rsatish, ta’lim va tibbiyot sohalarida xalqaro tajriba almashinuviga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ichki migratsiya jarayonlarida urbanizatsiya darajasining ko‘tarilishi va qishloq aholisining yirik shahar aglomeratsiyalariga (xususan, Toshkent shahriga) intilishi ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Migratsiya natijasida shakllanayotgan remittanslar (pul o‘tkazmalari) mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) barqarorligini ta’minlashda va aholi farovonligini oshirishda muhim drayver bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari bir qator qonunlar, Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi. So‘nggi yillarda, ayniqsa 2024–2025-yillarda ushbu sohada tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, bu sohada qabul qilingan bir qator muhim hujjatlarga e’tibor qaratsak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning mamlakat ichida erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, shuningdek, mamlakatdan chiqish va unga qaytish huquqini kafolatlaydi [6.84]. Prezidentning PF-162-son “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni 2024-yil 17-oktabrda qabul qilingan. Ushbu hujjat bilan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tugatilib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tashkil etildi [7]. Shu farmon bilan bir vaqtda Prezidentning "Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" PQ-367-son qarori qabul qilingan [8]. Bu hujjat xususiy bandlik agentliklari faoliyatini litsenziyalash va migrantlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilaydi. Shuningdek, hozirgi vaqtda “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi yaxlit Qonun loyihasi ustida ish olib borilmoqda, u barcha tarqoq me’yoriy hujjatlarni yagona tizimga birlashtirishi kutilmoqda.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zamonaviy dunyoda migratsiya shunchaki aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi emas, balki millatlararo munosabatlarni boyituvchi strategik resursdir. Migratsiya jarayonlari turli madaniyat vakillari o‘rtasida "jonli ko‘prik" vazifasini o‘tab, xalqlararo muloqotning yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi.

Migratsiyaning ijobiy xususiyatlari madaniy diffuziya va boyish, bag‘rikenglik (tolerantlik) muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik kabi muhim jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, migratsiya jarayonlarini to‘g‘ri boshqarish va millatlararo munosabatlarda bag‘rikenglik tamoyillariga tayanish jamiyatda barqarorlikni ta’minlashning eng samarali yo‘lidir. Migratsiya - bu muammo emas, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlash uchun berilgan imkoniyatdir.

Foydalanadigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston tarixi / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Fan, 2018. – 487 b.
2. Йоффи Н. Сферы взаимодействия в Месопотамии // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. – 120 с.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Migratsiya.
4. Абдуразакова Н. Г. Женская трудовая миграция в контексте глобализации: дис. канд. … социол. наук. Казань, 2008. 219 с.
5. Муртазаева Р.Ҳ. Глобаллашув шароитида аҳоли миграциясининг феминизациялашуви. “Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш ислоҳотларнинг муҳим омили” мавзусида Республика илмий амалий анжумани мақолалар тўплами. – Т.: 2019 йил. 491 б.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 84 b.
7. https://www.lex.uz/uz/docs/-7170458.
8. https://www.lex.uz/uz/docs/-7170464.